

# Paxtachilikda yangicha yondashuv: chigitni kapsula qilib ekish

O'zR FA Navoiy bo'limi "Kimyo texnologiyasi, nanotexnologiyalar va qishloq xo'jaligi" bo'linmasi mudiri M.Usmonov rahbarligida bentonit gillaridan foydalanib kapsulalangan chigit urug'larini ishlab chiqarish va paxtachilikda joriy qilish loyihasi asosida chigitni kapsula qilib ekish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ijobiy natijalarga erishildi.

Chigitni bentonit kukuni bilan kapsula qilib ekishning unib chiqishga ta'sirini aniqlash maqsadida issiqxona sharoitida tajribalar olib borildi.



*Ma'danli gil bilan kapsula qilingan va kapsula qilinmagan chigitdan ekilgan g'o'zaning unuvchanligi*

Tajribada chigit 2019-yil 19-fevral muddatda issiqxona sharoitida 20 litr hajmdagi tuvaklarda, har bir tuvakda 4 donadan, jami 48 dona unuvchan urug' ekildi. Unib chiqqunga qadar harorat 8°C dan 18°C oralig'ida bo'ldi.



*Ma'danli gil bilan kapsula qilingan va kapsula qilinmagan chigitdan ekilgan g'o'zaning rivojlanishidagi farqi*

Unib chiqish 27-fevraldan boshlanib, nazorat sifatida ekilganda 1 donani tashkil etgan bo'lsa, ma'danli gil bilan kapsula qilib ekilganda esa 4 donani tashkil etdi.

1-mart sanasiga kelib nazorat sifatida ekilganda unib chiqqan o'simliklar soni 7 donani, tajriba sifatida ekilganda esa 17 donani, bu esa mutanosib ravishda 14 va 35,4 foizni tashkil etdi.

Unib chiqish tezligi nazorat sifatida ekilganda 7 kunni tashkil qilgan bo'lsa, ma'danli gil bilan kapsula qilib ekilganda esa ushbu ko'rsatkich 3 kunni tashkil qildi.

Nazorat sifatida ekilganda jami 46 dona, ya'ni, 95,8%, ma'danli gil bilan kapsula qilib ekilganda 48 dona, ya'ni, 100% urug' unib chiqqanligi kuzatildi. Tajriba sinov sifatida ekilgan dala maydonlaridagi hosildorlik sezilarli darajada yuqori bo'ldi.



